

Date: 23<sup>rd</sup> November-2025

KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIK VA LINGVOMADANIYATNI  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Yuldashev Salaxiddin Azamovich

Qo‘qon universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri

[s.yuldashev@kokanduni.uz](mailto:s.yuldashev@kokanduni.uz)

[salahiddiny@gmail.com](mailto:salahiddiny@gmail.com)

<https://orcid.org/0000-0002-0943-3828>

**Annotatsiya:** Kompetensiya atamasi lug‘aviy jihatdan bevosita chuqur bilimga asoslangan qobiliyat, layoqatlilik darajasini anglatadi. Mazmunan esa «faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon etish»ni bildiradi. Umuman olganda, «kompetensiya» va «kompetentlilik» tushunchalariga berilgan ta‘riflarda kompetensiya muayyan faoliyatda talab qilinadigan xulq-atvor, o‘zini tutish, kompetentlilik esa ushbu talabga moslik darajasi, ya‘ni kompetensiyani namoyish qilishning pirovard natijasi deb talqin qilinadi.

**Kalit so‘z:** Lingvomadaniy, kommunikativ, kompetentligini, madaniy, polisub‘ekt, texnologik, kompleks, sub‘ektiv, metodik, sotsiolingvistik, grammatik, fonetik, leksik, sivilizatsiya, lingvokommunikativ.

Hozirgi kunda bo‘lajak tarjimonlarni tayyorlashda lingvomadaniy va kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash tizimida kommunikativ bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish va bu boradagi ta‘limiy islohotlarni jadallashtirishga doir ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatimizning barcha sohalarida o‘tkazilayotgan islohotlar uzluksiz ta‘lim tizimiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda. Barcha o‘zgarishlarning maqsad va mohiyati markazida rivojlanayotgan o‘quvchi shaxsi – uning maqsadi va o‘zini anglashi, shaxs bo‘lib yetishishi, kommunikativlik ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kabi masalalar turadi. O‘zbekistonda yosh avlodni kommunikativlik kompetentlik asosida tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi masalaga aylanishi bejiz emas.

Mazkur paragrafda lingvomadaniy va kommunikativ kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati, lug‘atlarda tariflanishi, pedagogik ahamiyati va uni shakllantirishga qaratilgan ta‘lim tizimining imkoniyatlari va mavjud holati tadqiq etilgan. Shuningdek, kommunikativlik dunyoqarashi va tafakkurini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari, qonunchilik normalarini amaliyotdagi xolati ham yoritilgan. Buning uchun avvalo kompetensiya tushunchasining mazmunini ochiq olish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Kompetensiya” atamasi birinchi marta AQSh Massachusetts universitetida XX asrning 60-70 yillarida Noam Xomskiy tomonidan “til kompetensiyasi” (language competence) orqali amaliyotga kiritilgan va unga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Kompetensiya – tilni qo‘llash jarayonidagi faoliyatga yo‘nalgan bilim, malaka va



Date: 23<sup>rd</sup> November-2025

ko'nikmalar majmui"dir<sup>1</sup>. Ayrim manbalarga ko'ra, 1959-60 yillarida R.Uayt asarlarida "Kompetensiya – inson hayoti shaxs motivatsiyasiga (motivation reconsidered the concept of competence) asoslangan yaxlit konsepsiya" sifatida talqin qilingan<sup>2</sup>. Shunday qilib, Yevropada bu atama 1970-yillarda qo'llana boshlandi.

Kompetensiya atamasi lug'aviy jihatdan bevosita chuqur bilimga asoslangan qobiliyat, layoqatlilik darajasini anglatadi<sup>3</sup>. Mazmunan esa «faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish»ni bildiradi. Umuman olganda, «kompetensiya» va «kompetentlilik» tushunchalariga berilgan ta'riflarda kompetensiya muayyan faoliyatda talab qilinadigan xulq-atvor, o'zini tutish, kompetentlilik esa ushbu talabga moslik darajasi, ya'ni kompetensiyani namoyish qilishning pirovard natijasi deb talqin qilinadi.

Pedagogikadan atamalar lug'atida «kompetensiya — u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik»<sup>4</sup> sifatida tarif berilgan bo'lsa, O'zbekiston milliy ensiklopediyasida «kompetensiya — 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba»<sup>5</sup> sifatida tariflanadi.

Kompetentlilik tushunchasi (lotinchadan competenlia, compete so'zidan olingan bo'lib — "birgalikda erishaman, qozonaman, mos kelaman, to'g'ri kelaman" degan ma'noni bildiradi) lug'atlarda esa "nimadir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish", "xabardor bo'lmoq, huquqli bo'lmoq" degan ma'noni bildiradi. Amalda barcha lug'at tuzuvchilar "kompetentlik" va "kompetensiya" kategoriyalarini chegaralab qo'yadi. Kompetentlik ta'rifi o'xshash va bir-birini o'rnini egallaydi (to'ldiradi), shu bilan bir vaqtda kompetensiya so'zi uchun yagona izohlash yo'q, bu tushuncha "vakolatlar yig'indisi (huquq va majburiyatlar) qandaydir organ yoki lavozimli shaxsning qonun, nizomlar bilan belgilab qo'yilgan ushbu organ yoki boshqa holatlar", "nimanidir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish (egallik qilish)", "kimdir yaxshi xabardor bo'lgan savollar to'plami (sohasi)" tushuniladi<sup>6</sup>.

Tadqiqotlar asosida kompetensiya so'zining quyidagi ma'nolari farqlanadi: aniq vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish qobiliyati; kasbiy standart tavsifiga mosligi; bilim, ko'nikma va malakalar (BKM), qobiliyat, motiv, shaxs, kommunikativ

<sup>1</sup> Божович Е.Д. Развитие языковой компетенции школьников: проблемы подходы // Вопр. психол. –М.: 1998. № 4. –С.70-71.

<sup>2</sup> Жемченкова С.А. Основные подходы к трактовке понятия «Компетенция», «Компетентность» зарубежом и их содержательное наполнение. Вестник ТГПУ. 2011. 13(115). –С.243. Электрон ресурс.<https://cyberleninka.ru/article/v/>

<sup>3</sup> Нарзиева Н. Формирование исследовательских компетенции у учащихся на основе интегративного подхода // XV Международная научно-практическая конференция. World science: problems and innovations. Мцнц «Наука и просвещение». 30-ноября 2017. –Пенза, 2017. Часть 3. –С. 114.

<sup>4</sup> Педагогикадан атамалар луғати. — Тошкент: Фан, 2008. — 196 б.

<sup>5</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. Зебуннисо-Кониғил. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. — 704 б.

<sup>6</sup> Маннопов Ж., Холматова А. Касб таълими ўқитувчисининг мустақил педагогик фаолият юрита олиш компетентлигини шакллантириш // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. — Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. — 209 б.



Date: 23<sup>rd</sup> November-2025

sifatlar va boshqa tushunchalarning umumiy yig'indisi; sifatli ishga tayyorgarligi va ko'nikmasi; lavozim vazifalariga mas'ulligi va vakolati; BKM+kasbiy muhim sifatlar; kompetensiyaning turli jihatlari; kasbiy muhim sifatlar tashkilotchilik konteksti bilan birgalikda kasbiy tajribani chuqur anglanishi; shaxsiy xususiyat, individuallik; muvaffaqiyatli faoliyatda inson omili; samarali ishlab chiqarish faoliyati mezonlari; ijodkorlik; aniq tashkilotlarda ishlab chiqarish vazifalari<sup>7</sup>. Demak, kompetensiya bu - bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, sabab omillari, shaxsiy sifatlar, maqsadli vaziyatlarning umumiy uyg'unligi hisoblanadi.

Tadqiqotchi olib I.Alievning fikricha, kompetentlik ma'lum bir egallangan kompetensiya, ya'ni ma'lum bir sifatlarning to'liq shakllangan majmui tushuniladi<sup>8</sup>. Mazkur tushuncha lug'atlarda «nimadir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish», «xabardor bo'lmoq, huquqli bo'lmoq» deya tariflanadi. «Kompetentlik ta'rifi o'xshash va bir-birini o'rnini egallaydi (to'ldiradi), shu bilan bir vaqtda kompetensiya so'zi uchun yagona izohlash yo'q, bu tushuncha «vakolatlar yig'indisi (huquq va majburiyatlar) qandaydir organ yoki lavozimli shaxsning qonun, nizomlar bilan belgilab qo'yilgan ushbu organ yoki boshqa holatlar», «nimanidir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish (egalik qilish)», «kimdir yaxshi xabardor bo'lgan savollar to'plami (sohasi)» tushuniladi<sup>9</sup>. Demakk, kompetentlikning ma'nolari turli sohalarda turlicha ma'no kasb etadi.

BAAdagi Al Vasl universiteti tadqiqotchisi Nisod Chathamkulam Abdulrahmon va Dubaydagi Britaniya universiteti vakili Emad A.S.Abu-Ayyashning ayrim maqolalarida<sup>10</sup> til kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya va o'zaro ta'sir kompetensiyasi bilan bog'liq ilmiy adabiyotlar o'rganilgan. Mualliflar 2 ta maqsadni: a) lingvistik, kommunikativ va o'zaro ta'sir kompetensiyalari haqidagi ma'lumotlarni ilmiy jamoatchilikka taqdim etish; b) mavjud barcha adabiyotlarni tanqidiy o'rganib chiqish, tahlil qilish va sharhlash; bu boradagi kamchiliklarni aniqlashni rejalashtirganlar. Mazkur olimlarning yutuqlari shundaki, ta'kidlangan kompetensiyalarning uchala turiga tegishli tadqiqotlarni batafsil muhokama qilgan; samarali auditoriya mashg'ulotlarini o'tkazish va tadqiqotlar olib borish uchun tegishli metodik tavsiyalar bergan.

Noam Chomsky tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan lingvistik kompetensiya nazariyasi tilshunoslikda o'ziga xos inqilob yasadi: fanda xilma-xil bahs-

<sup>7</sup> Ашуров А.А. Коммуникатив компетенция тушунчаси ва унинг мазмун-моҳияти//Ўзбекистонда хорижий тиллар. — 2020.— No 1(30). — С.76–83 (<https://journal.fledu.uz>)

<sup>8</sup> Алиев И.Т. Педагогнинг касбий компетентлиги // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. — Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. — 55 б.

<sup>9</sup> Маннопов Ж., Холматова А. Касб таълими ўқитувчисининг мустақил педагогик фаолият юрита олиш компетентлигини шакллантириш // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. — Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. — 209 б

<sup>10</sup> Nishad Chathamkulam Abdulrahman, Emad A. S. Abu-Ayyash. Linguistic competence, Communicative Competence and Interactional Competence. - JOURNAL OF ADVANCES IN LINGUISTICS Vol 10 (2019) ISSN: 2348-3024. - 1600-1616.



Date: 23<sup>rd</sup> November-2025

munozaralarga sababchi bo'ldi<sup>11</sup>. S.Thornbury fikriga ko'ra, lingvistik kompetentsiya – bu til egalarining “yangi shakllangan jumlar”ni tuza olish qobiliyatidir<sup>12</sup>. Noam Chomsky kompetentsiya (qobiliyat) va ifoda (gap) tushunchalarining farqlarini aniqlab berdi. Kompetentlik (qobiliyat) – bu til sohiblarining (ideal so'zlovchi – tinglovchilarning) o'z tillarining lingvistik tizimini, xususan, grammatikasini bilishi bo'lsa<sup>13</sup>, ifoda (gap) tilning amalda qo'llanishidir<sup>14</sup>. Biroq olim real lisoniy faoliyatni o'rganish uchun bir qator xilma-xil omillarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu omillardan biri – “ona tilida so'zlovchilarning malakasi, ya'ni ona tili kompetentligini puxta egallash”<sup>15</sup>. Mazkur olim lingvistik nazariyaning asosiy maqsadi tildan foydalanish asosidagi ruhiy-aqliy jarayonlarni tushuntirishdan iborat, deb ta'kidlaydi va shuning uchun tilshunoslikni o'rganishdan maqsad ifoda (gap)ni emas, balki kompetentsiyani o'rganishdan iborat bo'lishi kerakligini eslatadi<sup>16</sup>.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.– 41 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b
4. Божович Е.Д. Развитие языковой компетенции школьников: проблемы и подходы // Вопр. психол. –М.: 1998.
5. Жемченкова С.А. Основные подходы к трактовке понятия «Компетенция», «Компетентность» зарубежом и их содержательное наполнение. Вестник ТГПУ. 2011.
6. Нарзиева Н. Формирование исследовательских компетенции у учащихся на основе интегративного подхода // XV Международная научно-практическая конференция. World science: problems and innovations. МЦНС «Наука и просвещение». 30-ноября 2017. –Пенза, 2017.
7. Педагогикадан атамалар луғати. — Тошкент: Фан, 2008.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. Зебуннисо-Кониғил. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.
9. Маннопов Ж., Холматова А. Касб таълими ўқитувчисининг мустақил педагогик фаолият юрита олиш компетентлигини шакллантириш // Узлуксиз таълим тизимида

<sup>11</sup> Barman B. The Linguistic Philosophy of Noam Chomsky. Philosophy and Progress, 2014, 51(1-2),103-122.

<sup>12</sup> Thornbury S. An A-Z of ELT. Oxford: Macmillan Education, 2006.

<sup>13</sup> Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied linguistics, 1980, 1(1), 1-47.

<sup>14</sup> Chomsky N. Language and mind. 3rded. Cambridge: Cambridge University Press, 2006.

<sup>15</sup> Chomsky N.. Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, Massachusetts: The MIT Press, 1965.

<sup>16</sup> Barman B. The Linguistic Philosophy of Noam Chomsky. Philosophy and Progress, 51(1-2), 2014, 103-122.



Date: 23<sup>rd</sup> November-2025

ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. — Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013.

10. Ашуров А.А. Коммуникатив компетенция тушунчаси ва унинг мазмун-моҳияти//Ўзбекистонда хорижий тиллар. — 2020.

11. Алиев И.Т. Педагогнинг касбий компетентлиги // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. — Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013.

12. Nishad Chathamkulam Abdulrahman, Emad A. S. Abu-Ayyash. Linguistic competence, Communicative Competence and Interactional Competence. - JOURNAL OF ADVANCES IN LINGUISTICS Vol 10 (2019) ISSN: 2348-3024.

